

KREDIT MAXSULOTI PASPORTI

Kredit mahsulotining turi va nomi	“Turizm” Iste’mol krediti
Qarz oluvchi qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lishi va 18 yoshdan katta, pensiya yoshigacha bo'lgan jismoniy shaxs bo'lishi hamda doimiy daromadga ega bo'lishi.
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi - so'm
Kredit miqdori	BHMning 200 barobarigacha
Kredit maqsadi	O'zbekiston Respublikasi hududi hamda chet el mamlakatlari hududiga sayohatni amalga oshirish uchun mo'ljallangan.
Kredit muddati	Imtiyozli davrsiz – 36 oy muddatgacha
Foiz stavkasi	Yillik 26 % Kredit mahsuloti foiz stavkasiga boshqaruv qarori bilan o'zgartirish kiritilishi mumkin.
Taqdim etish shakli	Shartnomaga asosan turizm xizmatini ko'rsatuvchi tashkilotning hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li orqali.
Talab etiladigan xujjatlar	Qarz oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, va h.k.); Turizm firmasi bilan tuzilgan shartnoma; Kafilning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash uchun guvohnoma va h.k.); Agar garov taqdim qilinganda garov hujjatlari.
Kredit ta'minoti	30 000 000 (O'ttiz million) so'mdan oshmagan miqdorda ajratiladigan kreditlar uchun – kredit miqdorining 125% dan kam bo'lmagan miqdorda, bank talablariga muvofiq keladigan uchinchi shaxs kafilligi yoki boshqa likvidli ta'minoti. 30 000 000 (O'ttiz million) so'mdan yuqori bo'lgan miqdorda ajratiladigan kreditlar uchun – kredit miqdorining 125% dan kam bo'lmagan miqdorda, bank talablariga muvofiq keladigan likvidli mol-mulk garovi. Bankka aloqador bo'lgan shaxslarga ajratiladigan kreditlar bo'yicha 130% qiymatida garov qabul qilinadi.
Kredit qaytarish tartibi	Kredit va hisoblangan foizlarni to'lash kredit shartnomasida belgilangan tartibda va shartlarda annuitet va differensial to'lov usulida amalga oshiriladi.

Qo'shimcha shartlar	Kredit olishni istagan qarz oluvchi, kreditni olish uchun ariza berganida, oxirgi ish joyida kamida 6 (olti) oy davomida uzluksiz ishlagan bo'lishi lozim. Qarz oluvchining o'rtacha oylik sof daromadining 50%i iste'mol krediti bo'yicha eng yuqori oylik to'lov hamda mavjud kreditlar/qarzlar bo'yicha o'rtacha oylik to'lov miqdorini qoplash uchun yetarli bo'lishi lozim. Kafilning daromadi yuqoridagi talabga muvofiq alohida baholanadi..
----------------------------	--